

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 503 sahifa.
2025-yil, 22-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Ҳақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojiakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoiri Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	



BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIKLARI RISKINI KAMAYTIRISH

Ibrohimov D.M.

Renessans ta'lim universiteti iqtisodiyot kafedrası dotsent v.b

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank faoliyatida uchraydigan asosiy moliyaviy xatar turlaridan biri bo'lgan vaqtinchalik va qiymat nomutanosibliklarning mazmuni, sabablari hamda ularni boshqarish strategiyalari tahlil qilinadi. Bank aktivlari va majburiyatlari o'rtasida yuzaga keladigan vaqtinchalik nomutanosibliklar bankning qisqa muddatli likvidligini buzishi mumkin, qiymat nomutanosibliklar esa foiz stavkalaridagi o'zgarishlarga bog'liq ravishda bank rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muallif ushbu risklarni aniqlash, baholash va kamaytirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar — aktiv va majburiyatlarni boshqarish (ALM), GAP tahlili, duration tahlili va ssenariy modellash tirish kabi usullarni yoritadi. Shuningdek, maqola bank menejerlari, moliyaviy tahlilchilar va iqtisodiy tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim nazariy hamda amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: nomutanosiblik risklari, hejj qilish strategiyalari, portfelni diversifikatsiya qilish, forward va futures shartnomalari.

Abstract: This article analyzes the nature, causes, and management strategies of one of the key financial risks in banking activities — temporal and value mismatches. Temporal mismatches between a bank's assets and liabilities can disrupt its short-term liquidity, while value mismatches may negatively affect the bank's profitability due to fluctuations in interest rates. The author highlights modern approaches to identifying, assessing, and mitigating these risks, including Asset and Liability Management (ALM), GAP analysis, duration analysis, and scenario modeling. The article holds practical significance for bank managers, financial analysts, and economic researchers, offering essential theoretical and practical recommendations for ensuring financial stability.

Key words: mismatch risks, hedging strategies, portfolio diversification, forward and futures contracts.

Аннотация: В данной статье анализируются сущность, причины и стратегии управления одним из основных видов финансовых рисков в банковской деятельности — временными и стоимостными несоответствиями. Временные несоответствия между активами и обязательствами банка могут нарушить его краткосрочную ликвидность, в то время как стоимостные несоответствия могут отрицательно повлиять на рентабельность банка из-за колебаний процентных ставок. Автор рассматривает современные подходы к выявлению, оценке и снижению этих рисков, такие как управление активами и обязательствами (ALM), GAP-анализ, анализ дюрации и моделирование сценариев. Статья представляет практический интерес для банковских менеджеров, финансовых аналитиков и экономических исследователей, предлагая важные теоретические и прикладные рекомендации по обеспечению финансовой стабильности.

Ключевые слова: риски несоответствия, стратегии хеджирования, диверсификация портфеля, форвардные и фьючерсные контракты.

KIRISH

Bank tizimi har qanday mamlakatning moliyaviy infratuzilmasining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Banklar o'z faoliyati davomida turli xil moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish bilan birga, yuqori darajadagi risklarni ham boshqarishga majbur bo'ladi. Shunday risklardan biri — aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi vaqtinchalik



nomutanosiblik riski bo'lib, u bankning likvidlik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur risk bank balansining aktiv va passiv qismlaridagi muddatlar muvozanatining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Bunda bank qisqa muddatli majburiyatlarini bajarishi lozim bo'lgan bir vaqtda, uning aktivlari uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Bu esa bankni naqd pul oqimlarining yetishmasligi, likvidlik inqirozi yoki foiz stavkalaridagi salbiy o'zgarishlarga qarshi zaif holatga keltiradi.

Ushbu maqolada bank faoliyatida vaqtinchalik nomutanosibliklarning sabablari, ularning bank barqarorligiga ta'siri va ushbu riskni kamaytirish bo'yicha qo'llaniladigan zamonaviy usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, aktiv va majburiyatlarni boshqarish (ALM) hamda GAP tahlili kabi strategik yondashuvlar orqali mazkur muammoni samarali hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklar faoliyatida vaqtinchalik nomutanosibliklar riskini boshqarish bo'yicha turli nazariy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ko'plab ilmiy-adabiy manbalarda keng yoritilgan. Quyida ushbu yo'nalishda muhim hisoblangan asosiy adabiyotlar va ularning mazmuniga qisqacha sharh beriladi:

Rose, P. S. & Hudgins, S. C. – “Bank Management and Financial Services”. Ushbu darslikda banklarning aktiv va majburiyatlarini boshqarish (ALM – Asset and Liability Management) tizimi chuqur tahlil qilinadi. Mualliflar vaqtinchalik nomutanosibliklar riskini baholashda GAP tahlili, likvidlik tahlili va foiz stavkalari riskini boshqarish usullarini muhim deb hisoblaydi. Shuningdek, ALM siyosatining bank daromadliligiga va barqarorligiga ta'siri ko'rsatib o'tilgan.

Saunders, A. & Cornett, M. – “Financial Institutions Management: A Risk Management Approach”. Bu manbada moliyaviy institutlar, xususan banklar duch keladigan asosiy risklar – kredit riski, likvidlik riski, foiz stavkasi riski va vaqtinchalik nomutanosiblik riski haqida so'z yuritiladi. Mualliflar bank balansining muddatli tuzilmasini muvozanatli yuritishning strategik ahamiyatini ta'kidlaydi.

Бланк, И. А. – “Управление банковской ликвидностью” (Bank likvidligini boshqarish). Ushbu rus tilidagi monografiyada bank likvidligi va uning boshqaruvi chuqur o'rganilgan. Vaqtinchalik nomutanosibliklar likvidlik inqirozining asosiy sababi sifatida ko'riladi. Muallif likvidlik bo'yicha prognozlash modellari va ALM strategiyalarini amaliy jihatdan sharhlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklari aktivlarining samaradorligi bank foydasining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu ko'rsatkich orqali bankning investitsiya siyosati, kredit faoliyati, riskni boshqarish sifati va resurslardan foydalanish samaradorligi baholanadi. Rentabellik bank faoliyatining moliyaviy samaradorligi, kapital aylanishi va bozordagi barqarorlik holatini ifodalaydi. Shu jihatdan ROA (aktivlar daromadliligi), ROE (kapital daromadliligi), foiz marjasi va sof foiz daromadlari kabi asosiy sintetik ko'rsatkichlar asosida bank faoliyatini baholash tizimi shakllantirildi.

Shuningdek, banklar samaradorligini boshqarishda risklar, kredit siyosati, likvidlik darajasi va diversifikatsiya darajasi bilan bog'liq omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Bank samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, barqaror rentabellik ko'rsatkichlari qat'iy nazorat, raqamlashtirish, risklarni modellash hamda daromadlarni diversifikatsiyalash orqali ta'minlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqola tahliliy qismida O'zbekiston Respublikasi bank tizimining so'nggi yillardagi faoliyati keng miqyosda iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilindi. Jumladan, aktivlarning tarkibi, kredit portfeli, sof foyda, daromadlar va rentabellik ko'rsatkichlari, jumladan ROA va ROE dinamikasi o'rganildi. Shuningdek, “Ipoteka bank” va “Davr bank” kabi tijorat banklari misolida ularning rentabellik holati, kapital strukturasi o'zgarishi, foyda shakllanishi va amaliy tajribalari tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklarning aktivlari hajmi o'sayotgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi muayyan yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Masalan, umumiy bank tizimida 2023–2024-yillarda ROA ko'rsatkichi 2,6 foizdan 1,4 foizgacha tushgan. Bunda sof foizli daromadlarning aktivlar, majburiyatlar va kreditlar nisbati tahlili bank faoliyatining ichki strukturaviy nomutanosibliklarini aniqlashga yordam berdi.

Maqola ilmiy-innovatsion qismida “amaldagi bozor stavkasi”dan foydalanishga asoslangan tahliliy model taklif qilindi. Ushbu model orqali banklar o'zlarining real operatsion samaradorligini bozor stavkalari bilan solishtirish asosida tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. Model aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha bozor kurslarining ta'sirini hisobga olgan holda “potensial foyda” yoki “nisbiy zarar” ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv banklar uchun qaror qabul qilishda qo'shimcha analitik vosita bo'lib xizmat qilishi, likvidlik va riskni boshqarishda qo'llanishi mumkin. Modeldan foydalanish orqali bank o'z samaradorligini optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va bozordagi raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Tadqiqot asosida tijorat banklari aktivlarining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- bank aktivlari tarkibini optimallashtirish va foydali aktivlar ulushini oshirish;
- sektorlar bo'yicha kredit portfelining diversifikatsiyasini ta'minlash;
- investitsion faoliyatni kengaytirish va kapital resurslardan samarali foydalanish;
- bank ichki boshqaruv tizimini KPI, RAROC va boshqa indikatorlar asosida kuchaytirish;
- raqamli transformatsiyani jadallashtirish va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish;
- Basel va OECD xalqaro standartlarini joriy qilish orqali risklar va foydalilikni muvozanatlash.

Ushbu maqola ishida tijorat banklari aktivlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy, tahliliy va amaliy yondashuvlar tizimli asosda yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bank faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning aktivlar tuzilmasi, boshqaruv sifati va raqobatbardoshlik darajasiga bog'liqdir. O'zbekiston bank tizimining rivojlanayotgan bosqichida maqolada ilgari surilgan yondashuvlar va model tavsiyalari amaliyot uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni joriy etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bank faoliyatida aktiv va majburiyatlar o'rtasidagi muvozanat — moliyaviy barqarorlik va likvidlikning asosiy garovidir. Vaqtinchalik va qiymat nomutanosibliklar bankning likvidlik darajasiga, foiz stavkasi riskiga, rentabellikka hamda umumiy moliyaviy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu risklarni samarali boshqarish va minimallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Bank balansida mavjud bo'lgan aktivlar va majburiyatlar muayyan muddatlarda likvidlikka aylanish xususiyatiga ega. Agar bank o'z majburiyatlarini muddati kelganda to'lay olmasa, bu moliyaviy likvidlik inqiroziga olib kelishi mumkin. Shu sababli, aktiv va passivlar o'rtasidagi vaqtinchalik muvozanatni saqlash zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, bank balansidagi aktiv va majburiyatlar bozor qiymatining keskin o'zgarishlariga ham ta'sirchan. Ayniqsa foiz stavkalari, inflyatsiya va valyuta kursining tebranishi kabi omillar qiymat nomutanosibligiga olib keladi, bu esa bankning sof daromadiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu risklarni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Aktiv va majburiyatlar muddatlarini uzviylashtirish (match making). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aktiv va majburiyatlarning muddatlar bo'yicha muvofiqligi muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv bank balansining strukturaviy barqarorligini ta'minlab, likvidlik inqirozlari ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Banklar qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirsa, likvidlik muvozanati buziladi. Masalan, joriy depozitlar hisobidan uzoq muddatli ipoteka kreditlarini berish bankning to'lovga layoqatlilikiga xavf tug'diradi. Shu sababli aktivlar va majburiyatlar o'rtasida muddatlar bo'yicha "match" tamoyilini saqlash va ularning parallel harakatini ta'minlash zarur.

Ilmiy manbalarga ko'ra, aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirish bankka likvidlikni yo'qotmasdan rentabellikni oshirish imkonini beradi. Bu yondashuv ayniqsa foiz stavkalari tebranishi sharoitida xavfsiz investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun muhim hisoblanadi.

2. Gap-analyse (oraliq farq) metodidan foydalanish. Gap tahlili — aktivlar va majburiyatlarning muddati bo'yicha bo'shliqlarni aniqlovchi analitik vositadir. U orqali banklar muayyan vaqt oralig'ida yuzaga keladigan likvidlik nomutanosibligini oldindan bashorat qiladi.

Bu metodda har bir aktiv va majburiyat qaytarilish muddati bo'yicha guruhlariga ajratiladi (masalan: 1–30 kun, 31–90 kun, 91–180 kun va h.k.). Har bir oraliqda "ochiq pozitsiya" (gap) aniqlanadi:

Ijroiy gap (aktivlar majburiyatlardan ko'p) — ortiqcha likvidlik;

Salbiy gap (majburiyatlar ko'p) — likvidlik bosimi.

Mazkur metod bo'yicha olingan tahlil natijalari banklarga likvidlik darajasini muvozanatli saqlash va muddatlar o'rtasida aktivlar joylashtirish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, foiz stavkalari riskini ham boshqarishga xizmat qiladi.

3. Foiz stavkasi riskini boshqarish. Foiz stavkasi risklari bank daromadiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim moliyaviy risklardan biridir. U aktiv va majburiyatlarning qayta narxlash muddatlari o'rtasidagi tafovut natijasida yuzaga keladi. Masalan, bankning aktivlari (kreditlar) uzoq muddatli, ammo resurslari (depozitlar) qisqa muddatli bo'lsa, foiz stavkasining oshishi daromadni kamaytiradi.

Foiz riskini boshqarish uchun banklar:

duration gap metodidan (aktiv va passivlar sezgirligini solishtirish) foydalanadilar;



kreditlar va resurslar foizlarini “floater” tizimda belgilashadi (ya’ni foizlar bozor stavkasiga bog’langan holda);

derivativ instrumentlar (swaps, futures) orqali foiz tebranishlariga qarshi hedj qiladilar.

Bunday yondashuv foiz marjasi barqarorligini saqlashga, ya’ni sof foiz daromadini prognozlash va himoya qilishga xizmat qiladi.

4. Likvidlikni prognoz qilish va stress-testlar o’tkazish. Likvidlik riskini boshqarishda eng muhim yondashuvlardan biri stress-testlar orqali turli inqiroz stsensariylarini modellash va prognozlashdir. Banklar ichki siyosat hujjatlarida “likvidlik darajasining minimal chegarasi”ni belgilash orqali favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni mustahkamlashadi.

Stress-testlar orqali quyidagilar aniqlanadi:

katta hajmda depozitlar chiqib ketgan holatda likvidlik yetarliligi;

kredit portfelining katta qismi to’lanmasa, bu foydaga qanday ta’sir qiladi;

valyuta kursining keskin o’zgarishi yoki foiz stavkasi tebranishining oqibatlar.

Bu yondashuv bankka “eng yomon holatlar”ga tayyor turish imkonini beradi va risklarni oldindan kamaytiradi.

5. Hedj qilish strategiyalarini qo’llash. Nomutanosiblik risklarini kamaytirishda hedj (hedging) strategiyalari muhim ahamiyatga ega. Hedj qilish — bu valyuta, foiz yoki tovar narxlarining o’zgarishidan kelib chiqadigan zararlarni kompensatsiya qilishga yo’naltirilgan moliyaviy himoya vositasidir.

Tijorat banklari quyidagi vositalardan foydalanadi:

Forward va futures shartnomalari — valyuta risklarini boshqarish;

Interest rate swaps — foiz stavkasi riskini hedj qilish;

Options — kutilmagan narx o’zgarishlariga qarshi himoya.

Bu yondashuv bank daromadining barqarorligini ta’minlab, yuqori tavakkalchilikli holatlarda yo’qotishlarni minimallashtiradi.

6. Aktiv va majburiyatlar portfelini diversifikatsiyalash. Bank risklarini kamaytirishda portfel diversifikatsiyasi asosiy tamoyillardan biridir. Unga ko’ra, aktivlar va majburiyatlar:

- tarmoqlar bo’yicha;


- hududlar bo’yicha;

- muddatlar bo’yicha;

- valyutalar bo’yicha diversifikatsiyalanadi.

Masalan, kredit portfeli faqat sanoat yoki savdo tarmog’ida jamlanib qolmasligi kerak. Shu bilan birga, bank depozitlar tarkibini faqat jismoniy shaxslar mablag’i emas, balki yuridik shaxslar va moliyaviy institutlar hissasi orqali ham boyitishi zarur.

Bu yondashuv bankni individual risklarga bog’lanib qolishdan saqlaydi va nomutanosiblik xavfini pasaytiradi (1-rasm).



1-rasm. O’zbekistondagi tijorat banklari kredit portfelining tarmoqlar bo’yicha dinamikasi¹

1 cbu.uz-O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomondan tayyorlandi

Yuqoridagi grafikda 2020–2024-yillar davomida bank kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha qanday o'zgarib borganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining tez ortgani va boshqa tarmoqlar ulushining nisbatan pasaygani diversifikatsiya darajasining pastligini ko'rsatadi.

Bank faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda aktivlar hamda majburiyatlar o'rtasidagi vaqtinchalik va qiymat jihatdan muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur bo'limda olib borilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, aktiv va passivlarning muddatli nomutanosibligi, foiz stavkalari tebranishi, likvidlik tanqisligi hamda sektoral konsentratsiya bankning moliyaviy xavfsizligiga bevosita tahdid soladi.

Bo'limda ko'rib chiqilgan analitik yondashuvlar — aktiv va majburiyatlar muddatlarini uzviylashtirish, gap-tahlil, foiz stavkasi riskini boshqarish, stress-testlar, hedj qilish strategiyalari va portfel diversifikatsiyasi kabi zamonaviy vositalar bank risklarini samarali nazorat qilish imkonini beradi. Ayniqsa, real statistik ma'lumotlar va amaliy misollar orqali isbotlanganidek, risklarni oldindan baholash va ularni yumshatish bo'yicha chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirish bank samaradorligini oshirish bilan birga, uning likvidligi va kredit portfeli sifatini mustahkamlashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, kredit portfelining muvozanatsiz tarkibi (masalan, jismoniy shaxslarga haddan tashqari ko'p ajratilgan kreditlar) sektoral risklarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa banklar tomonidan kredit siyosatini diversifikatsiya qilish hamda kapital va resurslarni faol ravishda boshqarish zaruratini yanada oshirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Banklarning moliyaviy barqarorligi va samarali faoliyati ko'p jihatdan aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi vaqtinchalik nomutanosibliklarni boshqarishga bog'liqdir. Ushbu nomutanosibliklar, ayniqsa, bankning likvidlik holatini zaiflashtirishi va foiz stavkalaridagi o'zgarishlar natijasida bank daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, vaqtinchalik nomutanosibliklarning oldini olish va kamaytirish uchun zamonaviy risk boshqaruvi vositalari, xususan aktiv va majburiyatlarni boshqarish (ALM), GAP tahlili, duration va ssenariy modellashtirish usullari samarali vositalardir. Banklar ushbu metodlarni tatbiq etish orqali moliyaviy xatarlarni minimallashtirishi va o'z faoliyatining barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Takliflar:

Aktiv va majburiyatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Banklar o'z ALM tizimlarini rivojlantirib, muddatlar bo'yicha aktiv va passivlarni muvozanatlashga alohida e'tibor qaratishi zarur.

GAP tahlili va foiz stavkasi riskini doimiy monitoring qilish. Banklar GAP tahlilini muntazam amalga oshirib, foiz stavkalaridagi o'zgarishlar ta'sirini oldindan prognoz qilishi va risklarni kamaytirish choralari ko'rishi lozim.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Risklarni aniqlash va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun ilg'or raqamli texnologiyalarni qo'llash bank faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Markaziy bank tomonidan qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklar uchun aktiv va majburiyatlarni boshqarish bo'yicha metodik tavsiyalarni yangilab borishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun qo'shimcha vositalar ishlab chiqishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2013). *Bank Management and Financial Services*. McGraw-Hill Education.
2. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2018). *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. McGraw-Hill Education.
3. Бланк, И. А. (2010). *Управление банковской ликвидностью*. Москва: Финансы и статистика.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2022). *Banklar faoliyati bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent.
5. Abdurahmonov, X., Toshpo'latov, Sh., & Yusupov, M. (2020). Banklarda aktiv va majburiyatlarni boshqarish muammolari. *Iqtisodiyot va moliya jurnal*, 5(12), 45-53.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100